



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

**Universal International Scientific Journal**

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/3060-4540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 6

Published: 31.09.2024 <https://universaljurnal.uz>

**International indexes**

**GOOGLE SCHOLAR**

**CROSSREF (OAK BAZA)**

**ZENODO**

**OPEN AIRE**

**EUROPUB**

**RESEARCHGATE (OAK BAZA)**

**SJIF**



**Nargizaxon Abdurahmanova**

Andijon davlat universiteti  
Fakultetlararo chet tillar (aniq va tabiiy fanlar)  
kafedrası katta o‘qituvchisi f.f.f.d. PhD  
Uzbekistan

**INGLIZ VA O‘ZBEK**

**TILLARIDA INSTRUKTIV DISKURSNING LEKSIK SEMANTIK JIHATLARI HAMDA  
TARJIMA MUAMMOLARI**

**(taom tayyorlash retsepti misolida)**

**Abstract:** This article provides information about the semantic characteristics of the recipe and instructions for cooking, the descriptive part of food in gluttonous discourses, the origin of food, the form of preparation, structure, eating rituals and time.

The linguistic and cultural features of the voracious discourse were also touched upon..

**Key words:** voracious discourse, gastronomic communication, consumption, cooking recipe, instructive text, main discursive factors.

**Annotatsiya:** Mazkur maqola taom tayyorlash retsepti va yo‘riqnomasining semantic xususiyatlari haqida, glyuttonik diskurslarda taomning tavsifiy qismi, taomning kelib chiqishi, tayyorlanish shakli, tuzilishi, tanovul qilish marosimlari va vaqti kabi ma‘lumotlar berilgan.

Shuningdek glyuttonik diskursning lingvomadaniy hususiyatlariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so'zlar:** glyuttonik diskurs, gastronomic kommunikatsiya, iste'mol, taom tayyorlash retsepti, yo'riqnomasi matni, asosiy diskursiv omillar.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о семантических характеристиках рецепта и инструкции по приготовлению, описательной части пищи в обжорных дискурсах, происхождении еды, форме приготовления, структуре, обрядах приема пищи и времени.

Также были затронуты языковые и культурологические особенности прожорливого дискурса..

**Ключевые слова:** прожорливый дискурс, гастрономическая коммуникация, потребление, рецепт приготовления, инструктивный текст, основные дискурсивные факторы.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Abduraxmanova, N. (2024). LEXICAL-SEMANTIC ASPECTS OF EDUCATIONAL DISCOURSE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND PROBLEMS OF TRANSLATION. Universal International Scientific Journal, 1(6), 81–86. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1114>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.13932844>

## KIRISH.

Tilshunoslikda A.V.Olyanich, L.R.Yermakova, I.A.Derjavetskaya, N.P.Golovnitskaya kabi rus olimlari ilmiy tadqiqotlarida glyuttonik diskursning leksik-semantik, pragmatik va lingvokulturologik muammolari rus va ingliz tillari misolida qiyosiy tahlilga tortilgan.

Xorijlik olimlardan Fred L. Gardafe, Venying Su, Kara K.Killing, Skott, Kessler, Brad, Leyns, Vendi, Romona Perez va boshqalar «food» («ovqat») konseptining badiiy adabiyotda uchrashini tadqiq qilganlar.

Ingliz tili gastronomik diskursining lingvosemiotik xarakteri, taom tayyorlash retseptining matni alohida ko'rinishi sifatidagi xususiyatlari, nemis tili gastronomik diskursining lingvomadaniy xarakteristikasi, fransuz "gastronomiya" sining lingvomadaniy

imkoniyatlari, glyuttonik pragmatonimlarning milliy xarakteri, badiiy adabiyotda gastronomik nomlar tarjimasini xususiyatlari monografik planda tadqiq etilgan.

Glyuttonik diskursga lingvistik tadqiq ob'ekti sifatida qarashga bag'ishlangan ishlar ham kuzatiladi. Ko'rinadiki, ingliz tilida instruktiv diskursda taom yo'riqnomasi maxsus o'rganilmagan.

## ADABIYOTLAR TAXLILI

O'zbek olimlaridan J.Sh. Safarov, L.R. Raupova, qardosh olimlardan A.B.Tumanova, V.K.Sobirovalar tilshunoslikda diskursiv tahlil borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Keyingi yillarda kam sonli bo'lsa-da glyuttonik diskursga bag'ishlangan ishlar ham ko'rinishga boshladi. G.Odilovanning o'zbek va ingliz tillarida glyuttonik diskursining lingvomadaniy talqini haqidagi monografik tadqiqoti o'zbek va ingliz

instruktiv diskursi (xususan, glyuttonik diskurs) atroflicha o'rganilgani bilan diqqatga sazovor.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

G.Odilovanning ta'kidlashicha, "tadqiqotlarda glyuttonik diskursning o'zbek va ingliz tafakkuridagi o'rni, lingvokulturologik xususiyatlari, janrlari o'rganilmagan. Glyuttonik diskursning gastronomik olam milliy manzarasini yaratishdagi roli ko'rsatib berilmagan; kishilar ijtimoiy ongining o'sib borish dinamikasini tahlil qilishda glyuttonik diskurs tadqiqotining o'rni yoritilmagan; turli xususiy diskurslarda uchraydigan gastronomik leksikaning stilistik va badiiy xususiyatlari tahlil qilinmagan; o'zbek milliy taom nominantlari, taomnomalarni yaratish va boshqa tillarda berishning nazariy/amaliy jihatlari o'rganilmagan". Mazkur masalalarning dolzarbligi ko'rsatgan olim o'z tadqiqotida shu savollarga nazariy asoslangan javob bergan.

## **TAHLILLAR VA NATIJALAR.**

Lingvistikada taom bilan bog'liq lisoniy tushunchalar tadqiqi «glyuttonik diskurs tahlili» deyiladi.

Glyuttonik diskursni monografik planda tadqiq etgan G.Odilova diskursning mazkur turining o'rganilishini shunday izohlaydi: "M.V.Kapkning fikricha, yegulik ilk bor tarix va etnografiya sohasidagi tadqiqotlarda XIX asrning ikkinchi yarmida P.Giro, N.I.Zabelina, N.I.Kostomarova, A.V.Teremkolarning tadqiqotlarida keltirib o'tilgan.

Turkiyshunoslikda bir qarashda bu atama yangidek tuyulsa-da, glyuttonik diskursning o'ziga xos jihatlari ilk turkiy badiiy asar «Qutadg'u bilig»da ham tasvirlangani tadqiqotchilar diqqatini tortib keladi. Xususan, Fotih Qoya «Qutadg'u bilig»dan olingan parchalarni tahlilga tortadi va o'sha davr yemak madaniyati borasida original fikrlar bildiradi".

Glyuttonik diskursning lingvistik xususiyatlari ham atroflicha tadqiq etilgan. A.Yu.Zemskova diskursning ushbu turini quyidagicha ta'riflaydi: "Glyuttonik diskurs – yegulik aloqador kommunikatsiya jarayonida tilning o'ziga xos xususiyatini yuzaga chiqarish yo'llaridan biri. Yegulik iste'moli jarayoni millatlarning etnik, diniy qarashlari in'ikosi bo'lsa, «ovqat» shu millatning gastronomik kommunikatsiyasiga xos bo'lgan bir qator semiotik xususiyat, ma'noviy birlikni o'zida mujassam etgan dominant tushuncha sifatida asosiy o'rinni egallaydi".

G.Odilova madaniyatlararo muloqotda glyuttonik diskurs talqinini o'rganar ekan, quyidagi xulosaga keladi:

"Kishi bir millatning gastronomik olam manzarasi haqidagi tasavvurini glyuttonik diskursda uchraydigan quyidagi informativ omillar orqali jamlab olishi mumkin:

1) etnomadaniyat (ovqatlanishga oid verbal va paraverbal tushunchalar, qadriyat, udum, urf-odatlar);

2) milliy oshxona (milliy taom, shirinlik, ichimlik va gazaklar, ovqatlanish qoidalari);

3) ijtimoiy holat (iste'mol qilinadigan mahsulot turlari, oshxona jihozlari, restoran va barlarning soni, narxi va turi);

4) milliy adabiyot (glyuttonimlar tasviri, ovqatlanish va taom tasviri, bosh qahramonlar iste'mol qiladigan taomlar);

5) lingvogeografiya (hududiy iqlim o'zgarishlari, milliy taomlarning hududiy xaritasi, issiq va sovuq taomlarni iste'mol qilish xaritasi)".

Umuman olganda, G.Odilova glyuttonik diskursni o'rganar ekan, ko'proq uning lingvomadaniy xususiyatlariga e'tibor qaratadi, glyuttonik diskursni qayta yaratishda adekvatlik mezonlarini tahlilga tortadi, badiiy asarlardagi taom realiyalari va glyuttonim o'xshatmalarning pragmatik xususiyatlarini tadqiq etadi. Badiiy asarda "taom" konsepti, ularning tarjimasi, menyu(taomnoma) yaratishning stilistik muammolari, kulinar glossariy tayyorlashning lingvistik tamoyillari tahlilga tortadi.

Rus tilshunosligida taom retseptlari instruktiv diskurs sifatida (rus va nemis tillari qiyosiy aspektda) tadqiq ob'ekti bo'lgan. Bunda taom retsepti gastronomik diskursning bir qismi sifatida talqin qilingan. E.Yu.Stratiychuk matn kategoriyasi va matn hosil qiluvchi kategoriya tushunchalarini farqlashni taklif qiladi: "Agar matn kategoriyasi matn darajasida o'zini namoyon qiladigan kategoriya bo'lsa, matn hosil qiluvchi kategoriya matn tuzishda ishtirok etadigan kategoriyadir.

"Tandir varaqi somsa" retseptida taomning umumiy tavsif qismi quyidagicha beriladi: "Somsaning ushbu turi shahar aholisi o'rtasida ancha qadimdan kelib chiqqan bo'lishi kerak. Chunki havsala bilan bemaolchilikda tayyorlashni taqozo qilishi va tuzilishi ham chiroyli - to'rt shaklda, xo'randaga estetek zavq beradigan qilib yasalishi kabi omillar bunga ishora qiladi. Tandir varaqi to'y, bayram va katta mehmondorchilik izdahonlarida asosiy ma'zar hisoblanadi". Taomning tavsifi qismida taomning kelib chiqish joyi (1), tayyorlanish shakli (2), tuzilishi (3), tanovul qilish marosimlari va vaqti (4) kabi ma'lumotlardan iborat.

"Varaqi somsa" retseptining taom tavsifiga oid ma'lumot quyidagicha: "O'zbek pazandaligida varaqi tipidagi somsalar tayyorlash texnologiyasiga ko'ra ikki xil bo'ladi: yog'da qovuriladi yoki tandirga yopib pishiriladi. Har ikkala xili ham to'y, bayram va aziz mehmon dasturxoniga tayyorlanadigan ma'zar hisoblanadi. To'y ma'zariga va aziz mehmon dasturxoniga atalgan rasmana varaqi somsa bunday tayyorlanadi". Ushbu retseptning tavsif qismida uning yog'da va tandirda pishirilgan turlari haqida ma'lumot beriladi. Demak, tavsif qismi pishirilisha ko'ra turini ham izohlashi mumkin. Ikki retsept tavsifida ham mazkur taomning tansiq ekanligi, odatda, to'y, bayram va katta mehmondorchiliklarda iste'mol qilinishi aytiladi.

Tahlildan anglashiladiki, glyuttonik instruktiv diskursda muallifning taom

haqida axborot berish maqsadi birlamchi bo'ladi.

Taom tayyorlashga oid yozma yo'riqnomada gaplarning kesimi majhul nisbatda yoki I shaxs ko'plikdagi xabar maylida qo'llash keng tarqalgan:

Taom tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma matnlarida taomni tayyorlash ketma-ketligi aniq aks etishi ham diqqatga sazovor. Tayyorlash bosqichi 1-qadam, 2-qadam, 3-qadam, 4-qadam deb ajratib ko'rsatiladi.

Taom tayyorlash instruksiyasida har bir bosqich daqiqalar bilan ajratib ko'rsatilgan: mahsulot kerakli daqiqa davomida qovurilmasa yoki qaynatilmasa, istalgan natijaga erishilmaydi. Taomning pishish vaqti va mazasi o'zaro to'g'ri proporsional. Shu sababli bunday instruksiyalarda foydalanuvchi(adresat)ga tayyorlash vaqti va algoritmini to'g'ri yetkazib berish muhim.

O'zbek tilida taom tayyorlashga oid instruktiv matnlarning leksikasi (xususan, fe'l turkumiga oid so'zlari) o'ziga xos. Ularda qovurmoq, solmoq, aralastirmoq, terib chiqmoq, sepmoq, pishirmoq, dimlamoq, qaynatmoq, yoymoq, bukmoq, tugmoq kabi leksemalar faol ishtirok etadi.

Taom tayyorlash bo'yicha og'zaki instruksiyalarga misol sifatida youtube kanalidagi o'zbek tilida berilgan videolarni keltirish mumkin. youtube tarmog'idagi "O'zbek milliy taomlari" kanalida "Qovurdoq tayyorlash" mavzusidagi video materialni (<https://youtu.be/xkh-lPkQ2vE>) tahlilga tortamiz.

Taom tayyorlashga oid og'zaki instruktiv matnlarning o'ziga xosligi uning so'zlashuv uslubiga yaqinligidir. Ko'pincha, video-instruksiya mualliflari o'z tajribasi bilan o'rtoqlashadi. Video-instruksiya yozma instruksiyadan mazmunan ko'p farq qilmaydi: taom retseptiga oid bo'lgani sababli (yozma instruksiyada bo'lgani kabi) taom uchun zaruriy masalliq, taomni tayyorlash sharoiti va texnikasi haqida ma'lumot bo'ladi. Yozma instruksiyadan farqli jihati shuki, og'zaki instruksiya batafsil ma'lumot beradi, unda so'zlovchining emotsiyalari matn mazmuniga ekspressiv bo'yoq qo'shadi. Instruksiyaning sifati video muallifining mahorati, bilimi va malakasiga bog'liq: mutaxassis tayyorlagan instruksiya va havaskor ishi aniq farqlanadi.

**Xulosa.** O'zbek tilidagi glyuttonik instruktiv diskurs ayni vaqtda taom mansub bo'lgan xalqning yashash joyi hamda mahsulotning tayyorlanish mavsumi haqida ham ma'lumot beradi. Taom tayyorlashga oid yozma yo'riqnomada gaplarning kesimi majhul nisbatda yoki I shaxs ko'plikdagi xabar maylida qo'llash keng tarqalgan. Taom tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma matnlarida taomni tayyorlash ketma-ketligi aniq aks etishi diqqatga sazovor. Dori vositalarini qo'llash yoki maishiy texnika vositalaridan foydalanish instruksiyalarida qo'llash izchilligi, taom tayyorlash instruksiyasidan farqli ravishda, aniq berilmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Степанов Ю.С. Альтернативный мир, дискурс, факт и принципы причинности // Язык и наука конца XX века. – М., 1995. – С. 35-73.
2. Robert, P. Le nouveau Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française. – P.: Dictionnaires le Robert, 2002. – P. 735.
3. Одилова Г.К. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти (глуттоник дискурс мисолида). Дисс. докт филол. наук. – Тошкент. 2020, – 270 б.
4. Раупова Л.Р Диалогик дискурсадаги нопредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан д-ри. дисс. – Тошкент, 2012. – 220 б. 5. Канащук С.А. Инструктивный дискурс IT корпораций: социолингвистический аспект: диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук: 10.02.01 / Канащук Сергей Александрович; науч. рук. Н.А.Мишанкина; Том. гос. ун-т. – Томск, 2012.
6. Кондрашкина Е.Ю. К вопросу о текстосвязующих категориях в инструктивном тексте / Мир русского слова. № 3 / 2018. – С. 27-32.6. В.Н.Сачков. Введение в комбинаторные методы дискретной математики. Москва Издательство МЦНМО 2004.
7. А.О.Гельфонд. Исчисление конечных разност. Государственное издптелбство физико-математической литературы. Москва 1959.